



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ikromova Munisa Sheraliyevna

Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PROGNOSTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH NAZARIY ASOSLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda prognostik (bashorat qilish) kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Mazkur kompetensiya o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin egallab, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilar ehtiyojlarini oldindan ko'ra bilish, o'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashish kabi faoliyatlarda asosiy rol o'ynaydi. Maqolada prognostik kompetensiyaning mazmuni, tuzilmasi va tarkibiy komponentlari (bilimiy, faoliyatga oid, fikrlashga oid) ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, prognozlash kompetensiyasi, xxborotga asoslangan prognozlash kompetensiyasi, amaliy-prognozlash kompetensiyasi, baholovchi-prognozlash kompetensiyasi, rejalashtirishga asoslangan prognozlash kompetensiyasi, maxsus prognozlash kompetensiyasi, xususiy-kasbiy kompetensiya.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF FORMING PROGNOSTIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract. This article reveals the theoretical foundations of forming prognostic competence in future teachers. This competence occupies an important place in the professional training of educators, playing a key role in increasing the effectiveness of the educational process, the ability to anticipate the needs of learners, and adapt to the changing educational environment. The article analyzes the content, structure, and

constituent components of prognostic competence (knowledge, activity-related, and cognitive aspects) based on scientific sources.

Keywords: competence, competency, prognostic competence, informational-prognostic competence, practical-prognostic competence, evaluative-prognostic competence, planning-prognostic competence, special prognostic competence, private-professional competence.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОГНОСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические основы формирования прогностической компетентности у будущих учителей. Данная компетентность занимает важное место в профессиональной подготовке педагогов, играя ключевую роль в повышении эффективности образовательного процесса, способности предвидеть потребности обучающихся и адаптироваться к меняющейся образовательной среде. В статье анализируются содержание, структура и составные компоненты прогностической компетентности (знания, деятельностные и мыслительные аспекты) на основе научных источников.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, прогностическая компетенция, информационно-прогностическая компетенция, практико-прогностическая компетенция, оценочно-прогностическая компетенция, плано-прогностическая компетенция, специальная прогностическая компетенция, частно-профессиональная компетенция.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonining muhim maqsadlaridan biri bu — pedagogika yo'nalishidagi oliygoh talabalari prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan ijtimoiy va ta'limiy muhitda pedagoglarning voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati va o'zgarishlarga moslasha olish layoqati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Olimlarning ta'kidlashicha murakkab kasbiy vazifalarni hal qila oladigan va ta'lim amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zarurati dolzarb ahamiyatga ega[1].

Prognozlash kompetentligini rivojlantirish masalasi bo'yicha B.S.Gershunskiy, I.K.Jujuravlyov, S.Y.Batyshev, L.F.Spirin, I.Y.Lerner, Y.K.Babanskiy tomonidan muhim ilmiy ishlar olib borilgan. Prognozlashning falsafiy jihatlari S.G.Goncharuk, V.V.Kosolapov, V.P.Tugarinov va G.I.Ruzavin tomonidan tadqiq etilgan. Prognozlash amaliyotining umumiy nazariy asoslari N.I.Jinkin, V.A.Brushlinskiy, P.K.Anoxin va B.F.Lomov asarlarida bayon etilgan.

Shuningdek, prognozlash kompetentligini o'rganishga xorijiy tadqiqotchilardan J.Stover, A.Hoffmann, K.Trundle, M.Bong, S.Sungok, Y.Cho, D.R.Horge, F.F.Hood, R.T.Willis ham o'z hissasini qo'shgan.

Prognozlash kompetensiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki u pedagogning kasbiy ko'nikmalarining ajralmas qismidir. B.D.Kucherning fikricha voqealarni oldindan bashorat qilish qobiliyati o'qituvchilarga nafaqat ehtimoliy muammolar va xatarlarni aniqlash, balki ularni yengib o'tish uchun strategik rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida prognozlash ko'nikmalarining hozirgi rivojlanish darajasini aniqlash va ushbu kompetensiyani ta'lim dasturlari doirasida chuqurroq o'rganish muhim hisoblanadi [2].

Zamonaviy pedagogika fanlarida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'rtasida farqlash kuzatiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kompetentlik — kompetensiyadan hosil bo'lgan tushuncha hisoblanadi. S.I.Dyakov fikricha, kompetentlik — bu shaxsning individualligi sifatida namoyon bo'ladigan, ta'lim jarayonida egallangan bilimlar va tajriba asosida faoliyat yuritishga tayyorligi va qobiliyatidir. Kompetensiya esa ta'lim natijasini ifodalaydi, ya'ni abituriyentning aniq vazifalarni bajarishga tayyorligi va layoqatini aks ettiradi[3].

Y.V.Frolovning ta'kidlashicha prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish — bu prognozlash harakatlarini o'zlashtirish va ularni turli pedagogik kontekstlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro ta'sir va hamkorlik jarayonidir. Shu asosda, ilmiy adabiyotlarda "prognozlash kompetensiyasi" va "prognozlash kompetentligi" tushunchalari ajratib ko'rsatiladi [4].

Prognozlash kompetensiyasi — bu kasbiy faoliyatda yuzaga kelayotgan voqealar va holatlarni oldindan aytib berish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi bo'lib, mavjud tendensiyalarni tahlil qilish, qonuniyatlarni aniqlash va belgilangan maqsadlarga erishish uchun strategik rejalar ishlab chiqish qobiliyatini o'z ichiga oladi[5].

Prognozlash kompetentligi esa — bu shaxsning kompleks sifati bo'lib, unda prognozlash kompetensiyasini amaliy faoliyatda samarali qo'llay olishga tayyorlik va layoqat ifodalanadi. Bu kompetentlik muammolar va xatarlarni oldindan ko'ra bilish, ularni oldini olish bo'yicha adekvat choralarni ishlab chiqish va o'zgarishlarga moslasha olish qobiliyatlarida namoyon bo'ladi[6].

Darhaqiqat, bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida har kuni prognozlash jarayonlari va vaziyatlariga duch keladi, bu esa ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishish uchun zarurdir. Bo'lajak o'qituvchining prognozlash kompetentligi — bu shaxsning integrativ sifati bo'lib, u kasbiy-nazariy bilimlar, shaxsiy fazilatlar, qadriyatga asoslangan munosabatlar, amaliy ko'nikmalar hamda prognozlash faoliyatiga nisbatan motivatsion-axloqiy munosabat va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan o'z-o'zini prognozlashga intilishini o'z ichiga oladi.

O.M.Rastopchina esa prognozlash kompetentligini kasbiy kompetentlik tarkibiy qismi sifatida ko'radi[7]. Bu esa shuni anglatadiki, prognozlash kompetentligini egallash har kuni va kasbiy faoliyatda bashorat qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, shaxsiy kasbiy shakllanishning individual yo'lini belgilash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, prognozlash kompetentligini quyidagi asosiy tarkibiy qismlar tashkil etadi:

Axborotga asoslangan prognozlash kompetensiyasi – bu prognozlash faoliyatining asoslarini, shuningdek, talabalarning ma'lumot bilan ishlash yo'llarini to'g'ri tanlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini ifodalaydi.

Amaliy-prognozlash kompetensiyasi – bu prognozlash uslublarini egallash, o'quv, shaxsiy va boshqa faoliyat sohalariga oid individual bashoratlarni tuza olish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Baholovchi-prognozlash kompetensiyasi – bu o'z faoliyatini prognozlash mezonlari asosida tahlil va baholash qobiliyatini anglatadi.

Rejalashtirishga asoslangan prognozlash kompetensiyasi – bu pedagog yoki o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, mavzulashtirilgan dars rejalarini tuzish, individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishdagi layoqatini bildiradi.

Maxsus prognozlash kompetensiyasi – ma'lum bir kasbiy faoliyatga tegishli prognozlash kompetensiyalarini anglatadi.

Xususiy-kasbiy kompetensiya – bu aniq kasbiy faoliyat turidagi ish yuritish darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, ko'plab bo'lajak o'qituvchilar amaliy faoliyatda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Buning sababi — ular pedagogik ta'sir va o'zaro munosabatlarning kutilgan natijalarini oldindan belgilay olishda yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi, o'quvchilarning imkoniyatlarini aniq baholay olmasliklari va ta'lim muhitidagi o'zgarishlarga tezkor javob qaytarish ko'nikmalarining sustligidir.

A.V.Zaxarov tomonidan taklif etilgan prognozlash ko'nikmalari tuzilmasiga tayangan holda, prognozlash kompetentligining quyidagi tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatiladi:

Bilimiy komponent – bu ta'lim jarayonida prognozlash bo'yicha zarur nazariy bilimlarni, prognozlashning mantiqiy tuzilmasi va amaliy protseduralarini tushunishni shakllantiradi.

Faoliyatga oid komponent – bu faoliyatni prognozlash bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantiradi, masalan: sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, mulohazalarni qayta tashkil qilish va o'zgartirish.

Fikrlashga oid komponent – bu tahlil qilish, tafakkurning chuqurligi, ongli yondashuv, moslashuvchanlik, istiqbollilik va fikr yuritishning asoslanganligi kabi tafakkur jarayonlarining bir qator xususiyatlarini rivojlantiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va prognozlash kompetentligiga oid tushunchalarni tizimlashtirish orqali mazkur kompetensiyaning pedagog kadrlar tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati tasdiqlandi. Prognozlash kompetentligining tarkibi nafaqat bilim va faoliyatga oid jihatlarni, balki potentsial muammolarni oldindan ko'ra olish hamda o'zgarishlarga samarali javob qaytara olish imkonini beruvchi fikrlash qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur tadqiqot mavjud ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va yangilash, shuningdek, ularga prognozlash kompetentligini rivojlantiruvchi komponentlarni kiritish lozimligini asoslaydi. Bunday tarkibiy qismlarni

kiritish bo'lajak pedagoglarga o'z kasbiy faoliyatlariga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishga, muammolarni oldindan ko'ra olish va ularni yengib o'tish, shuningdek, o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga va zamonaviy ta'lim muhitining talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Сайфуллина Н.А. Структурно-содержательная характеристика прогностической компетентности студентов педагогической магистратуры // Ped.Rev. 2020. № 4. С. 32.
2. Кучер Б.Д. Формирование профессиональной компетентности учителей: сущность, структура и функции // Концепт. 2024. № 4. С. 159-165.
3. Дьяков С.И., Добряк С.Ю., Кисин К.А. Взаимосвязь понятий «Формирование» и «Развитие» и их роль в педагогической теории и практике // Педагогический журнал. 2023. № 5А. Т. 13. С. 525-536
4. Фролов Ю.В., Махотин Д.А. Компетентностная модель как основа оценки качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. 2020. № 8. С. 34-41.
5. Новая психология профессионального труда педагога: от нестабильной реальности к устойчивому развитию: сб. ст. Под ред. Л.М. Митиной. М: Психологический институт РАО, 2021. 356 с.
6. Никитина Л.Е., Липский И.А., Майорова-Щеглова С.Н. Педагогическое прогнозирование: науч.-метод. пос. Под общ. ред. Л.Е. Никитиной. М.: НОУ ВПО Московский психолого-социальный институт, 2021. 288 с.
7. Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66